

## NAVRO'Z BAYRAMINING ETIMOLOGIYASI

*Hayitova Aziza*

*Termiz davlat universiteti*

*O'zbek filologiyasi fakulteti*

*Amaliy filologiya yo'nalishi*

*1- bosqich talabasi*

*[skmalxabibilaev1122@gmail.com](mailto:skmalxabibilaev1122@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada navro'z bayramining qachon, qay tarzda kelib chiqqani haqidagi afsonalar keltirilgan. Navro'z bayrami kelishi bilan tabiat hodisalarining o'zgarishi kabi ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqola xulosasida Navro'z qadimgi sharq xalqlarining urf- odatlarini, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi bayramdir.

**Kalit so'zlar:** Navro'z, afsonalar, etimologiya, tarixiy shaxslar, zardushtiylik

**Abstract.** This article presents legends about when and how the Nowruz holiday originated. With the arrival of Nowruz holiday, information such as changes in natural phenomena has been given. In the conclusion of the article, Navroz is a holiday that reflects the traditions and national values of ancient Eastern peoples.

**Key words:** Navroz, legends, etymology, historical figures, Zoroastrianism.

**Абстрактный.** В данной статье представлены легенды о том, когда и как возник праздник Навруз. С наступлением праздника Навруз была дана такая информация, как изменения в природных явлениях. В заключении статьи Навруз - праздник, отражающий традиции и национальные ценности древневосточных народов.

**Ключевые слова:** Навруз, легенды, этимология, исторические личности, зороастризм.

**Kirish.** Navro'z bayrami qadimda ko'plab mamlakatlarda keng nishonlanib kelingan. Tarixdan ma'lumki, bu bayram xalqlarining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, yasharish, shuningdek, tabiatning uyg'onishi kabi ramziy belgilarni o'zida ifodalab kelgan. Navro'z bayramining lug'aviy ma'nosi O'zbek tilining izohli lug'atida batafsil ma'lumot berib o'tilgan bo'lib, bu bayramning qachon va qayerda paydo bo'lganligini aniqlashda bevosita uning etimologiyasiga nazar solamiz. Holbuki, Navro'z kelishi bilan o'zi bilan birgalikda qut- baraka, to'kinchilik ham olib keladi. Bundan ko'rinadiki, Navro'z ezgulik, to'qchilik ramzi ekanligi anglashiladi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu sohaga doir tadqiqotlarni o'tkazishda "jarayonni bevosita kuzatish", "hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish", "qiyoslash", "etimologik manbalardan foydalanish", "amaliy tadqiqotlar olib boorish" va "elektron lug'atlar ustida tadqiq va tahlil" metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Navro'z ko'plab xalqlarning milliyligini ifodalovchi bayram bo'lgani sababli, insonning ma'naviyatiga ma'rifatiga ham bog'liqdir. Navro'z bayramini etimolgik jihatdan tadqiq qilishda, shuningdek, inson ma'naviyatida o'ziga xos xususiyatga egaligi uchun bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar A. Ashirov [2.28], M.Tog'ay [5.67] M.Abdullayev A. Abdullayev [3.48] olib borgan. Navro'z bayramining kelib chiqishida turli xildagi qiziqarli afsonalarni bilib olishimiz mumkin. Ularda xalqlarning qadimgi hayot tarzini, ulardagi o'ziga xos qadriyatlarini bilib olamiz.

Navro'z - bahor bayrami, tabiatning uyg'onishidan darak beruvchi elchi. Bu bayramni barcha insonlar birdek ko'tarinki kayfiyatda, o'yin- kulgi bilan kutib olishadi. Navro'z bayram yaqinlashishi bilan hamma bayramni kutib olish uchun taraddud ko'rishadi. Insonlar navro'z bayrami yaxshi kutib olinsa, yil bo'yi shu kayfiyatda bo'lib, mo'l- ko'lchilik ko'p bo'ladi deya umid qilishadi. Haqiqatdan ham bu tushunchalar juda qadim zamonlardan shakllanib kelgan. Navro'z haqida turli xildagi bir- biridan qiziq afsonalar ham mavjud. Navro'z bayramining paydo bo'lishida qadim tarixga ulardagi qiziqarli afsonalarga yuzlanamiz. Navro'z forschadan "yangi kun" ma'nosini anglatadi. Navro'z so'zi " O'zbek tilining imlo lug'ati" kitobidan ko'rilganda uning o'zagi "nav" so'zidan olingan bo'lib, bu o'zak orqali ko'pgina so'zlar hosil qilish mumkin. Masalan, Navro'z, Navro'zgul, navro'zgildoshlar, navsiz, navro'zlik, navxurush, navxurushlik, navzanbilloh va boshqa. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da Navro'z so'ziga shunday izoh berilgan. Navro'z. Bu ot tojik tilida "yangi" ma'nosini anglatadigan nav sifatida bilan (TjRS, 252) kun ma'nosini anglatadigan "ro'z" otidan (TjRS, 330) tuzilgan bo'lib, yangi yil boshlanadigan 21- mart kuni ma'nosini anglatadi. (O'TIL.1. 492). O'zbek tilining izohli lug'ati 1981- yildagi nashrida Navro'z haqida shunday izoh berilgan. Navro'z 1. Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni ( navro'z oyining 21- martiga to'g'ri keladi) 2. Bahor chog'i, bahor. Navro'z yomg'iri. Navro'z bayrami yangi stildagi yangi yil va bahor munosabati bilan o'tkaziladigan bayram. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'atining 2001- yildagi nashrida Navro'z 1. Quyoshning Hut yulduzlar turkumidan Hamal yulduzlar turkumiga o'tish davrining boshlanishi. Bu davr 20- martdan 21- martgacha o'tar kechasiga to'g'ri keladi. Navro'z boshlanmoq. 2. Umumxalq bayrami Navro'z telemarofonini tashkil qilmoq. 3. Bahor chog'i. Bahor. Navro'zda to'y qilmoq. O'TILning 2006- yilda nashr etilgan sonida Navro'z so'ziga shunday izoh berilgan.

NAVRO'Z I - [f. – yangi kun] 1 Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi). 2 Bahor chog'i, bahor. Navro'z yomg'iri Navro'z bayrami - Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram. Navro'zi ajam O'zbek mumtoz kuylaridan birining nomi. Navro'z (erkaklar ismi).

NAVRO'Z II - Kechpishar o'rik navi. Bu bayram qachon va qayerda paydo bo'lgan savol berilishi tabiiy holdir. Bu haqida aniq faktlar bilan asoslanmagani uchun turlj afsonalar, qarashlarga tayanamiz. "Saodat" jurnalida chop etilgan "Onaqutining saxovati" maqolasida Navro'z haqida shunday deyilgan. Dunyoga ilk

alifboni bergan allomalar yurti dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda unig nomi Xvayrazam deyilgan. Xorazmning Niso shahrida Navro'z bayrami paydo bo'lgan deyilgan. Uning afsonasi quyidagicha Niso shahridaning poytaxti bo'lgan Parfiyonada Jumboq qal'a, Burgut qal'a Niso qo'rg'oni bo'lib, o'sha yerda saqlanib qolgan "olov uy" bo'lgan va uzoq yillardan beri saqlanib qolgan. Burgut qal'aning markazida moviy gumbaz bo'lgan uning ichida Onaqutining qo'lida zumrad tosh bo'lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo'yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo'lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o'txonasiga o't yoqqan", deyilgan. Shu kun Navro'z bayrami paydo bo'lgan qarash ham mavjud. Boshqa afsonalarda esa Odam Ato va Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro'z bayrami nishonlangan deyilgan. Abu Rayhon Beruniyning „Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir, — deydi. — Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatarkan. Navro'z eronliklar „zij“lari bo'yicha o'tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo'ldi<sup>1</sup>. O'shandan boshlab, gullar ochilib, hayvonlar qishgi uyqudan uyg'onadi. Tabiatning barcha sir - sinoatlari uyg'onib, atrof jonlanadi. Firdavsiyning "Shohnama" asarida yangi yil bayrami Jamshid shoh bilan bog'liq bo'lib, Jamshid shoh davrida xalqiga yaxshilik qilish maqsadida yurtida obodonchilik ishlarini olib boradi. Kasb o'rgatadi. Yurtini yashnatadi. Temirni eritib, qurol yasatadi. Ip igirtirib, kiyim to'qitadi. Imoratlar qurdiradi. Tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog' bunyod qiladi. Nihoyat, „ishlari gurkirab berganda meva“ bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko'tariladi. Ushbu afsonaga ko'ra xuddi shu kuni Navro'z nishonlangan.

Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida qahramonlar tilida Navro'z bayramining qaysi kunda kelishi barokatli ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Asarda Navro'z qaysi kun kelsa, yil yaxshi bo'ladi? degan savol qo'yilgan. Javob tarzida quyidagilar berilgan: Yakshanba kun kelsa, ko'p binoyi bo'ladi. O'lim- yetimlar oz bo'ladi. Fisq- fasod, yomonlik kam bo'ladi. Aybi, bug'doy tanqis bo'ladi. Navro'z seshanba kun kelsa, ochlik bo'lmaydi, oshlik bo'ladi. Ertachi ekinlar yaxshi bo'ladi, noz- ne'matlarlar- da yaxshi bo'ladi. Aybi, taqchilroq bo'ladi. Yomoni, qon ko'p to'kiladi. El- yurt orasidan rahm- shafqat ko'tariladi. O'g'il otadan qaytadi, qiz onadan qaytadi, ayol eridan qaytadi. Podshohlar taxtdan qula- qula bo'ladi. Yomonlik ko'payadi. Qor kam yog'adi. Yil oxirida sel ko'p keladi. Navro'z chorshanba kun kelsa, yil qimmatchilik bo'ladi. Qorin- tomoq uchun qon to'kiladi. Fisq- fasod, g'alamislik ko'p bo'ladi. Payshanbada kelsa, dardmanlik ko'p bo'ladi. Shu yili oy bilan kun tutiladi. Jumada

<sup>1</sup> CC BY-SA 3.0

kelsa, yomg'ir mo'l- ko'l bo'ladi. Aybi, qahraton sovuq bo'ladi. Shanba kun kelsa, o'g'ri- muttahamlar yili bo'ladi, mushtumzo'rlar yili bo'ladi.

Navro'z bayrami qadimgi zamonlardan zardushtiyliklar davrigacha bo'lgan asrlarda nishonlanib keladi. Hozirda Navro'z bayrami Eron, Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarida 21- martda nishonlanib kelinadi. Qozog'istonda 22- martda nishonlanadi. Navro'z Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda (martning 20, 21 va yoki 22-da) boshlanadi. Ba'zi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uyg'onishi bilan bog'laydilar, shu munosabat bilan bayramlar o'tkazishadi, uni yangi yilning boshlanishidek bayram qiladilar. Qadim zamonlardan boshlab Ozarbayjon, O'zbekiston, Eron, Afg'oniston, Tojikiston va yana ko'plab sharqiy o'lkalarda bahorning — yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olishadi. Martning 21-sanasi Eron va Afg'onistonda rasmiy taqvimning dastlabki birinchi kuni hisoblanadi. 2009-yil 30-sentyabda Navro'z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart „Xalqaro Navro'z Kuni“ deb e'lon qilindi. Hali ham bu bayram xalqlar o'rtasida keng ko'lamda davom etib kelmoqda. Bayram kuni sumalak, ko'k somsa, ko'k patir, halim, ko'k oshi kabi turli xildagi milliy taomlar dasturxonga tortiladi. Milliy takmlar mazaliligi bilan bir qatorda shifobaxshliyligi bilan ajralib turadi. Navro'z bayramida kuy- qo'shiqlar, milliy o'yinlar, masalan, kurash, arqon tortish, chillak, beshtosh va boshqa o'yinlar ham o'ynaladi. Ayol- u erkaklar ham milliy libos kiyishadi. Yosh- u qarining yuzi kulgiga, xursandchilikka boy bo'ladi. Gina- qudurlatlarga barham qo'yiladi. Urushganlar yarashadi. Tabiatda yasharish, kun va tun tenglashgan bo'ladi. Kunlar isiydi, nafaqat, insonlarning qalbida ham mehr- muruvvat kabi hislar uyg'onadi. Navro'z bayrami yaxshiliklarga, ezgulikka boy bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**XULOSA.** Navro'z bayramini nishonlanuvchi mamlakatlar bu bayramni ko'tarinki kayfiyatda kutib olishadi. Tabiat hodialari ro'y beradi. Ko'chatlar, gullar ekiladi. Insonlar milliy liboslarda bo'lib, milliy taomlar, milliy o'yinlar bilan Navro'zni kutib olishadi. Navro'z bayrami yoshlik, beg'uborlik, go'zallik ramzi bo'lib, yosh-u qari birdek ko'tarinki kayfiyatda kutib oladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Navro'z bayramining etimologiyasi har bir davlatning o'ziga xos afsonasi, yaralish tarixi bor. Aniq ma'lum bir hududda kelib chiqqanligi haqida ma'lunotlar berilmagan. Bu jumboq tarixning sir- sinoati bo'lib qolgan. Lekin shuni aytish mumkinki, Navro'z bayramining paydo bo'lishida har bir millatning o'z qarashlari, afsonalari bor. Bundan ko'rinadiki, Navro'z bayrami azal- azaldan shakllanib, insonlar qalbidan joy olgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Navro'z milliy va umuminsoniy qadriyatlar bayrami" – T.: 1992.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T.: 2007 yil.
3. Abdullayev M. Abdullayev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona, 1998 yil.

4. Karimov I.A "Yuksak- ma'naviyat yengilmas kuch " T. 2000 y.
5. Tog'ay Murodning " Oydinda yurgan odamlar" .T.2022 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T.: 2007 yil.
7. Etnomadaniyat fanidan ma'ruzalar matni. 1-qism. Farg'ona, 2001 yil.
8. Akobirov S. Aliqulov T. Zufayuv S. Ibrohimov S. Ikromova N. Mamayuv N. Ma'rufov Z. Mirtojdiyev M. Mixaylov G. Nurmonova Sh. Xo'jaxonov A. Habibullayev N. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva. 1981- yil.
9. Hojiyev A. Nurmonov A. Zaynobiddinov S. Kokren K. Saidxonov M. Sobirov A. Quronov D. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent. 2001- yil.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. 2006- yil.
11. Madvaliyev.A " O'zbek tilining imlo lug'ati " - Toshkent. Akademnashr.2012-yil.- 528 b.
12. Rahmatullayev. Sh. " O'zbek tilining etimologik lug'ati " - Toshkent 2000- yil.
13. Abdulhakimovna K. M. SOFTWARE AND DATA ENTRY PRINCIPLES OF THE ONLINE DIALECT DATABASE //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 46-53.
14. Kholova M. Pech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound “J” dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1103-1107.
15. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
16. Холова М. А. О'ZBEK SHEVALARINING STANDART TILGA MUNOSABATI VA TIL TIZIMIDAGI O'RNI (BOYSUN TUMANI “J” LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) // Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

#### Internet saytlari

17. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
18. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
19. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
20. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
21. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)